



ШАХС МАСЪУЛИЯТИ МУАММОСИ АХЛОҚИЙ КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА

Muhammadiyeva M.M.

Qarshi davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti

Tayanch soʻzlar: шахс, мезон, талаб, масъулият, ахлоқ, назорат, одат, жавобгарлик, фазилат, инсон, онг, менталитет.

Ключевые слова: человек, критерий, требование, ответственность, мораль, контроль, привычка, ответственность, добродетель, человек, разум, менталитет.

Key words: man, criterion, requirement, responsibility, morality, control, habit, responsibility, virtue, mind, mentality.

Yurtimizda qadimdan ajdodlarimiz ma'naviy merosidan tortib hozirgi kunda yaratilayotgan ilmiy, siyosiy manbalarda ham shaxs mas'uliyatligi muammosiga atroficha yondashib kelingan. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev asarlarida har bir fuqaroning mas'ullik va shaxsiy javobgarlik hissi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutishi alohida ta'kidlanadi. Yosh avlod tarbiyasida asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan axloqiy sifat tarzida Amir Temur "Tuzuklar"ida ham alohida qayd etiladi. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kaykovus, Sa'diy SHeroziy, Abdulla Avloniy asarlarida ham faoliyatiga javobgarlik bilan yondashadigan va shijoatli yoshlarni tarbiyalash maqsadga muvofiq ekanligi xususida to'xtalib o'tiladi.

Shaxsni axloqiy mezon va talablarga rioya qilishga odatlantirib borish tashabbuskorlik, tashkilotchilik, mustaqillik, mas'uliyatlilik kabi asosiy shaxsiy fazilatlar shakllanashda muhim ahamiyat kasb etadi, zero shaxsning xulq-atvor meyorlari bilan mas'uliyati uzviy aloqadadir.

Zamonaviy sharoitlarda shaxsni turli faoliyatlarga jalb etish, ularda axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalalari, ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bunday axloqiy sifatlar jamiyatdagi insoniy xatti-harakatlarda, atrof olamga nisbatan munosabatida, meyorlar va qoidalarda namoyon bo'ladi; ularni o'zlashtirgach, bola salbiy holatlarga konstruktiv ravishda qarshi turish tajribasiga ega bo'la boshlaydi, axloqiy qonun-qoidalarga muvofiq atrofdagilar bilan munosabatda bo'lishni o'rganadi. Ushbu axloqiy qadriyatlar o'quvchilarda atrof

olam obrazi mazmunini boyitish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularni bilgan holda, bola atrof olamni va sodir bo‘layotgan hodisalarni anglashni, baholashni va ular uchun qayg‘urishni o‘rganadi, uni o‘z faoliyatida qayta yaratadi va shu bilan o‘z hayotiy pozitsiyasini shakllantiradi.

Yuqoridagi tahlillar natijasida davlatning ta‘limdagi ijtimoiy buyurtmasi mas‘uliyatli tanlov sharoitida mustaqil ravishda qaror qabul qilishga tayyor bo‘lgan shaxsni tarbiyalashga qaratilgan, degan xulosaga kelamiz. Har davrda va har qanday jamiyatda ham shaxs faoliyatining natijadorligi va yuqori samaradorligi undagi mas‘uliyatlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy hayotda ma‘suliyat bilan amalga oshirilayotgan faoliyat natijasida shaxs albatta yuqori samaradorlikka erishadi va shu bilan birga intizomlilik, vatanparvarlik, insonparvarlik, sabr-qanoatlilik kabi yuksak ma‘naviy-axloqiy hamda irodaviy sifatlarni ham egallab boradi.

Mas‘uliyat atamasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta‘rif beriladi: mas‘uliyat arab tilidan olingan bo‘lib – “javobgarlik”, “hisob berishlik” ma‘nolarini anglatadi va u biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo‘lgan javobgarlik demakdir” [6; 555].

Pedagogik manbalarda, jumladan, “Oliy ta‘lim” nomli lug‘at-ma‘lumotnomada mas‘uliyat atamasiga “shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish shakli, o‘zini amalga oshirgan xatti-harakatlari va ularning oqibatiga sabab deb bilishda namoyon bo‘ladi, shuningdek, atrof muhitda va shaxsiy hayotdagi o‘zgarishlar sababi bo‘lishdagi o‘z qobiliyatini tushunish va nazorat qilishda aks etadi” [2; 171]. Yuqoridagi keltirilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ta‘rifda “mas‘uliyat” tushunchasining lug‘aviy ma‘nosi va mohiyati ochib berilgan bo‘lsa, pedagogik lug‘atda bu atamaga ijtimoiy fan va shaxsning ijtimoiy faoliyati nuqtai nazaridan izoh berilgan.

Shaxs mas‘uliyati ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan axloqiy sifatlardan biri hisoblanganligi sababli ham falsafiy, pedagogik va badiiy adabiyotlarda ushbu muammoga juda ko‘p marotaba murojaat etiladi.

Mas‘uliyat, mas‘ullik tushunchalari axloqiy-etika kategoriya sifatida ham olimlar tomonidan pedagogik, psixologik va falsafiy jihatdan o‘rganilib kelayotgan muhim masalalardan biridir. G‘arb olimlaridan V.F.Safinning ta‘kidlashicha, mas‘ullik yetakchi axloqiy jihat sifatida faqatgina “subyekt tomonidan uning hoxishiga ko‘ra o‘zgarmaydigan bo‘ladi”.

Umuman olganda pedagog-psixologik olimlar tomonidan, mas‘ullikning axloqiy-etik jihatlariga o‘rganish va bu boradagi fikr-muloha, ilmiy qarashlar nihoyatda xilma-xildir. Tadqiqotchi olimlardan J. Piaje., J.P. Satr va boshqalar mas‘uliyatni bajarilayotgan harakatning moddiy natijasini baholashga asoslanilgan obyektiv javobgarligidan tortib, mutlaqlashtiruvchi ichki javobgarlikgacha bo‘lgan qarashlarda deb ko‘rsatadi.



Shubhasiz, insonda har bir xodisaga axloqiy qarashlarsiz, insoniy yondoshuvlarsiz, voqeani qat'ian, vijdonan baholamagan holda o'zgalarga yordam qo'lini "boshqacha bo'lishi mumkin emas" tarzida chiqishi, yordam ko'rsatishi mumkin emas.

Bu borada mas'uliyatning "ichki va tashqi" munosabatlari tushunchasini o'rganar ekanmiz, shaxsning hatti-harakati va fikrlashida ichki mas'uliyat tuyg'usi, ya'ni o'z-o'zini nazorat qilish hatti-harakatlarini baholash, o'zini boshqarish tuyg'usi alohida ahamiyatga ega. Umuman olganda, mas'uliyat murakkab va ko'p darajali hodisa bo'lib, u shaxs xulq-atvori ustidan ijtimoiy nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish shakli sifatida ta'riflanishi ham mumkin.

Ko'plab tadqiqotchilar xuddi ana shu jihatlarini hisobga olgan holda mas'uliyat tushunchasiga murakkab xarakter sifatida tavsiflaydilar. Shu o'rinda insonning, ya'ni alohida shaxsning mas'uliyat tuyg'ulari uning mentalitetidan kelib chiqqan holda tavsiflanadi. Mentalitet darajasida "tabiiy va madaniy, ratsional va emotsional onglilik, individuallik va umumiylik, kesishadi" [5; 177]. Demak har bir shaxsning mas'uliyat borasidagi axloqiy qarashlari albatta uning millati, turmush tarzi, dunyoqarashiga qarab shakllanadi.

Shaxsning o'zi anglamagan holdagi (ongsiz) mas'uliyat haqida gapirar ekanmiz, shuni e'tiborga olish kerakki, uning komponentlari "tabiiy shaxsiy xususiyatlarga ega bo'ladi va u individual turmush natijasida egallangan bo'ladi" [3; 179].

Taxmin qilish mumkinki, boshqa hodisalar bilan bir qatorda, mas'uliyatning ba'zi tarkibiy qismlari inson ongsizida uxlab yotgan va go'yo «ongsizlik hali ong chegarasiga etib bormagan materialni o'z ichiga oladi» [3; 179]. Xususan, A.S. Prangishvili "faoliyat va mas'uliyatga tayyorlik" ko'rsatkichi sifatida munosabat haqida gapiradi. Bundan tashqari, u kuchli irodali mas'uliyatli xatti-harakatlarning asosi sifatida munosabat haqida gapiradi. K.A. Abulxanova-Slavskaya mas'uliyatni zaruratni amalga oshirishning shaxsiy mexanizmi sifatida ko'rib, «...shaxsning tashqi zaruratni o'zlashtirib olishi va uni ichki ehtiyojga aylantirishi, shuning uchun ichki zarurat javobgarlikning eng yuqori bosqichidir ...» [1; 118].

Ko'pgina xususiyatlar insonga xos, u tug'ilganidan so'ng paydo bo'ladi deb hisoblashimizga qaramasdan, ba'zi bir xususiyatlarimiz, iqtidorimiz bizning naslimizda, irsiy xususiyatlarimizda tabiat tomonidan yaratilgan bo'ladi. Bunday shunday xulosa qilishimiz mumkinki, shaxs mas'uliyatining axloqiy kategoriyalari, mezonlari nafaqat ijtimoiy muhit yoki tarbiya jarayonida shakllanadi balki bevosita irsiy jihatdan oilaviy qadriyatlar, an'analar ta'sirida yillar davomida shakllanib boradi. Jumladan, shaxsda mas'uliyatlilikning shakllanganligi kundalik hayotdagi holatlarga nisbatan ular o'zlaridagi ma'naviy-qadriyatli, axloqiy mazmuni namoyon etishlarida kuzatiladi. Natija quyidagi shartlar asosida amalga oshishi mumkin, agarda:

- mos ravishda ma'naviy-qadriyatli munosabatlar, axloqiy meyorlar haqida yetarli bilimga ega bo'lsa;



- o‘z xatti-harakatlarini boshqaruvida ularning ahamiyatini anglasa;
- bilimlarini norasmiy nomoyon etsa, ma’naviy-qadriyatli munosabatlarini amalga oshirsa va axloqiy tuyg‘ular paydo bo‘lishi asosida o‘zini salbiy holatlardan saqlasa;
- axloqiy talablarni talab etuvchi holatlarda yetarli darajadagi iroda kuchini nomoyon eta olsa;
- amaliy tajribani to‘plashga imkon beruvchi turli faoliyatlarga ma’naviy meyorlardan foydalanishga tizimli ravishda qo‘shiladi.

Shaxs mas’uliyatligi uning o‘z-o‘ziga, atrofida qilargana, atrof-muhitga va mavjud meyorlarga adekvat munosabati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli shaxs tug‘ilganoq unda tartib-intizom, o‘z xatti-harakati va buyumlari uchun javobgarlik, irodalilik kabi sifatlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish va buning uchun jarayon tashkilotchilari bo‘lgan tarbiyachilar bilan birgalikda ularni ota-onalarini ham tayyorlab borish lozim.

Adabiyotlar:

1. Абульханова-Славская К.А. Проблема исследования индивидуального сознания / К.А. Абульханова-Славская, М.И. Воловикова, В.А. Елисеев // Психологический журнал. - 1991. - Т.12, № 4. - С. 27-40.
2. Oliy ta’lim (lug‘at-ma’lumotnoma). –Toshkent: “Moliya” nashriyoti, 2003, 456 b.
3. Юнг К.Г. Психология бессознательного. М. 1994. 320 с
4. Пиаже Ж. Избранные психологические труды / Ж. Пиаже. - Москва: Междунар. пед. акад., 1994. - 680 с.
5. Зотов Ф.А. Современная западная философия. М.: Высш. ш. 1991, 454 с
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J. II. / Tahrir hay‘ati: T.Mirzayev va b.q. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -671 b.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада муаллиф шахс масъулияти муаммоси, шахсни ахлоқий мезон талабларга риоя қилишга одаглантириб боришнинг ўрни ва аҳамияти, шахс масъулиятининг ижтимоий қиммати, масъулиятнинг баъзи таркибий қисмлари, шахснинг ўз-ўзини назорат қилиши, ҳагги-ҳаракатларини баҳолашининг педагогик асослари, шахснинг хулқ-атвор меъёрлари билан масъулияти узвий алоқадорлигини илмий жиҳатдан таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье автор рассматривает проблему личной ответственности, значение и важность воспитания человека к соблюдению моральных норм, социальную ценность личной ответственности, все части ответственности, самоконтроль человека, самоконтроль над собой, личность, самоконтроль, педагогика оценки службы безопасности, соответствие требованиям морального критерия личности, социальная ценность ответственности личности. Научно про-анализирована ответственность органических отношений.

SUMMARY

In this article, the author examines the problem of personal responsibility, the meaning and importance of educating a person to comply with moral standards, the social value of personal responsibility, all parts of responsibility, human self-control, self-control. personality, self-control, pedagogy of security service assessment, compliance with the requirements of the moral criterion of the individual, social value of individual responsibility. The responsibility of organic relationships is scientifically analyzed.